

**BOSHLANG'ICH SINFLARDA INKLYUZIV TA'LIM JARAYONIDA
PEDAGOGIK O'YINLARDAN FOYDALANISHNING O'ZIGA XOSLIGI**

Sharifjonova Kamolaxon Tohirjon qizi

Qo'qon davlat pedagogika instituti

Ta'lim-tarbiya nazariyasi va metodikasi (boshlang'ich ta'lim)

mutaxassisligi 2-bosqich magistranti

kamolasharifjonova4@gmail.com

Annotatsiya. maqolada inklyuziv ta'lim jarayonining xususiyatlari, afzalliklari, inklyuziv ta'lim jarayonida o'yinlardan foydalanishning o'ziga xos tomonlari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: inklyuziv ta'lim, inklyuziv ta'limning afzalliklari, maxsus o'yinlar, maxsus ehtiyoji bor bolalar, do'stona muhit, birdamlik.

Hozirgi kunda Respublikamizda alohida yordamga muhtoj bolalarning rivojlanish darajasini oshirish, imkoniyatlarini yanada kengaytirish, qobiliyatlarini rivojlantirish maqsadida bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, 2020-yil 23-sentyabrda qabul qilingan yangi tahrirdagi "Ta'lim to'g'risida"gi qonun, 2020-yil 13-oktyabrda qabul qilingan "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi prezident qarorida bu masalalarga alohida to'xtalib o'tildi. "Ta'lim to'g'risida"gi qonunning yangi tahririda inklyuziv ta'lim tushunchasi birinchi marotaba qo'llanildi. Inklyuziv ta'lim – fransuzcha "inclusif" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, "o'z ichiga oladi" deb tarjima qilinadi va maxsus ehtiyojlari bo'lgan va shartli ravishda sog'lom ya'ni sog'lig'i cheklanmagan odamlarning birgalikdagi ta'limini anglatadi.¹ Inklyuziv ta'lim deganda biz imkoniyatlari cheklangan bolalar va sog'lom bolalarning birga o'qishi degan tor ma'noni tushunmasligimiz kerak. Aslida bu degani har ikki turdagi bolalarning bir xil sharoitda, bir xil e'tibor ostida, tabaqalashtirishsizlarsiz ta'lim olishini nazarda tutadi. Ushbu ta'lim turi bir qator afzalliklarga ega. Masalan, bolalarning jamiyatga kirisha olishi. Ya'ni maxsus ehtiyojga ega bolalar faqatgina davolash maskanlari yoki yaqin qarindoshlari davrasida qolib ketmaydi. Boshqa bolalar singari o'zini jamiyatning teng huquqli a'zosi deb biladilar. Shunday ekan, bugungi kunda o'sib borayotgan har bir yosh avlod o'zini Vatanga kerakli deb bilishi, jamiyat uchun foydali shaxs deb hisoblashi, o'z ehtiyojlarini qondirish uchun imkoniyatlaridan to'laqonli foydalana olishi kunning dolzarb vazifalaridan biridir.

Inklyuziv ta'limda faoliyatini olib borish pedagoglardan yuksak mahorat talab qiladi. O'qituvchilar bilimni shunchaki, og'zaki tarzda bolalarga aytib beribgina qolmay, balki o'zlari amaliyotda ko'rsatishlari va bilimni egallashda bolalarga yordamchi bo'lishlari lozim. Har bir o'quvchiga alohida shaxs – qobiliyat egasi deb qarashlari juda muhimdir. Bunda berilgan topshiriqlarni baholashda o'quvchilarning bilim doirasi bilan birgalikda qobiliyat, qiziqishlarini ham

¹ [Inklyuziv ta'lim: afzalliklari va kamchiliklari, xususiyatlari va tavsiyalari - Jamiyat - 2022 \(drunkentengu.com\)](http://drunkentengu.com)

inobatga olish kerak. Bu o'quvchilarni o'zlarini alohida shaxs deb hisoblashlariga, tanqidiy fikrlarini erkin bayon eta olishlariga yordam beradi. Pedagoglar dars jarayonini qiziqarli, yanada tushunarli bo'lishi uchun turli o'yinlardan foydalanadilar. O'yinlarni tanlashda quyidagilarga e'tibor berish juda muhimdir:

- Birinchi o'rinda shaxs qadr-qimmati turishi lozim. Qadr-qimmat qobiliyatga yoki shaxs yutuqlariga bog'liq bo'lmasligi lozim. Bunda muhimi o'yinda ishtirok ekanligi, natija nisbiy ekanligi tushuntirilishi lozim;

- Har bir o'quvchining farqlarini hisobga olgan holda, ularning barchasini minimal darajadagi ta'lim darajasiga erishtirishga yordam berishi kerak;

- Oddiy bolalarda hamdardlik, sabr-toqat, bag'rikenglik kabi insoniy fazilatlarni rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'lishi;

- O'quvchilar bir birlarini qo'llashlari, yordam berishlari, do'stona munosabat hosil qilishi.

L.S.Vigotskiy ijtimoiy muhit sog'ligi imkoniyatlari cheklangan bolalar uchun birinchi darajali ahamiyatga egadir, degan g'oyani ilgari suradi.² Shunday ekan dars jarayonida sinfda sog'lom muhitni shakllantirish, bolalarni imkoniyatlarini to'la ochib berishga harakat qilish lozim. Mashg'ulot uchun o'yin tanlashda avvalo bolalardagi qaysi imkoniyat cheklanganligiga e'tibor qaratish muhimdir.

Masalan, tayanch-harakat apparatining buzilishi. Tayanch-harakat buzilishlariga ega bolalarga yurish, predmetlarni ushlab va ushlab turishda qiynaladigan; o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish ko'nikmalari shakllanmagan, cheklangan masofada bo'lsa ham, mustaqil ravishda harakat qila oladigan, harakat buzilishlari o'rtacha bo'lgan; qisman o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish ko'nikmalariga ega bolalar, mustaqil ravishda harakat qiladigan, o'z-o'zini parvarish qilish ko'nikmalariga ega, lekin ba'zi harakatlarni noto'g'ri bajaradigan bolalar kiradi.³ Biz quyida mayda motorika mashqlari va ularni rivojlantiruvchi o'yinlarni ko'rib chiqamiz:

Mayda motorika – bu qo'l va ko'zning kichik mushaklarining muvofiqlashtirilgan ishidan kelib chiqadigan vosita harakati.⁴ Qo'lning mayda motorikasini rivojlantirishda kichik predmetlar bilan amalga oshiriladigan: konstruktorlar, turli xil mozaikalar, qiziqarli jumboqlar, munchoqlardan buyum yasash, sanoq tayoqchalari, urug'lar va boshqalar; yasash, chizish va turli xildagi hunarmandchilik ishlari orqali bajariladigan; o'z-o'ziga xizmat ko'rsatishning elementar ko'nikmalarini rivojlantirish (tugmalarni taqish va yechish, bog'ichlarni bog'lash va boshqalar) orqali amalga oshiriladigan; predmetlar konturi ustida chizish, bo'yash, kataklar va qoliplar asosida chizish bo'yicha mashqlar; suv, qum, lentalar, rezina bantlar va boshqalar bilan amalga oshiriladigan o'yinlardan foydalanish maqsadga muvofidir. Bu harakatlar orqali bolalarning qo'l muskullari harakati yaxshilanishiga erishish mumkin. Bunday o'yinlarda, albatta, sinfdagi

² Vigotskiy L.S. Defekt i sverxkompensatsiya. // "Problema defektologii". M., 1996. –S. 42.

³ biologiya.edu.uz/kontent/yoshfiziologiyasi/2/2.pdf

⁴

sogʻlom bolalar imkoniyati cheklangan bolalar bilan birgalikda topshiriqlarni bajarishi, bir birlariga yordam berishi lozim.

Koʻrish qobiliyatining buzilishi. Koʻrish qobiliyatining buzilishi — shaxsning shakllanishi va rivojlanishining butun jarayoniga taʼsir qiladigan vizual idrokning cheklanishi yoki uning yoʻqligida namoyon boʻladigan psixofizik nuqson.⁵

Koʻrishda nuqsoni bor bolalar bilan ishlaganda esa eʼtibor berilishi lozim boʻlgan boʻlgan bir qancha talablar mavjud. Masalan, xonaning yorugʻligi, sinf xonasidagi jihozlarning oʻrnini doimiy saqlash, xona rangi, partaning boʻyi va shu kabilar. Bunday nuqsoni bor bolalar bor sinflarda oʻyinlar oʻtkazishda obyektlarni namoyish etishda vizual idrokni yaxshilaydigan fonlardan foydalanish, predmetlarni qora va oq fonda yoki yashil (tinchlantiruvchi), jigarrang (sokin, kontrastli) yoki toʻq sariq rangda (ragʻbatlantiruvchi) fonda namoyish etish, predmetni va fonni rangga moslash, shu orqali uni barcha detallarda yaxshiroq koʻrishga erishish, predmetlar katta, yorqin, shakli va detallari boʻyicha aniq boʻlishini taʼminlash, obyektlarni bir-biridan alohida ajralib turadigan qilib joylashtirish, ular bir qator va nuqtada birlashib ketmasligiga harakat qilish lozim. Oʻqituvchi oʻz nutqiga eʼtibor berishi kerak. Oʻqituvchining nutqi ifodali va aniq boʻlishi kerak, dars davomida qilayotgan, yozayotgan, chizayotgan yoki tajriba oʻtkazgandagi barcha harakatlarni nutq orqali ifodalash muhimdir. Chunki, bola eshitish orqali koʻproq maʼlumot oladi va tasavvur qiladi. Masalan, koʻrishda nuqsoni bor bolalar bilan 1-sinf ona tili va oʻqish savodxonligi darsligida berilgan “Uy hayvonlari” boʻlimida quyidagicha oʻyin tashkil etish mumkin:

Buning uchun ferma rasmi, maketi, uy hayvonlarining maketlari va rasmlari kerak boʻladi. Bunda maket va rasmlar bir xilligiga eʼtibor qaratish zarur. Bunda bolalarga dastlab maketdagi uy hayvonlarini joylashgan oʻrni bilan tanishish vazifasi beriladi. Bunda bolalardagi koʻrish va teginish yordamida predmetlarning xususiyatlarini va farqlarini aniqlash qobiliyati mustahkamlanadi va rivojlantiriladi. Soʻngra bolalar rasmlarni xuddi maketdagidek qilib ferma rasmiga joylashtirishi soʻraladi. Bu oʻyin orqali bolalarning diqqati rivojlantiriladi, buyumlarni sezgi orqali his qilib yanada yorqinroq koʻrishga imkon yaratadi.

Eshitishda nuqsoni bor bolalar. Eshitishda nuqsoni boʻlgan bolalar — bu tovushlarni aniqlash va tushunish qobiliyati toʻliq (karlik) yoki qisman (zaif eshituvchilar) pasaygan bolalar. Eshitish qobiliyati bolaning rivojlanishida muhim rol oʻynaydi. Eshitish qobiliyati yordamida bola tovushlarni tushunishni, tovushlarga taqlid qilishni va gapirishni oʻrganadi. Eshitish qobiliyati bolaga intellektual rivojlanish, xavfli signallarni eshitish, yoʻnalishni aniqlash, boshqa bolalar bilan muloqot qilish va aloqa qilish koʻnikmalarini egallash imkonini beradi.⁶ Eshitish qobiliyatining yoʻqolishi bolani muhim maʼlumot manbasidan mahrum qiladi va uning intellektual rivojlanishini cheklaydi. Biroq, bu xususiyatlar

⁵ Moʻminova.L.R va b.q. Maxsus psixologiya – Oʻzbekiston faylasuflarimilliy jamiyati nashriyoti: Toshkent, 2018 -270 b

⁶ Moʻminova.L.R va b.q. Maxsus psixologiya – Oʻzbekiston faylasuflarimilliy jamiyati nashriyoti: Toshkent, 2018 -270 b

mashg'ulotlarda maxsus usullar va texnik vositalardan foydalanish bilan kompensatsiya qilinishi mumkin. Eshitishdagi nuqsonlar nutqning rivojlanishiga va bolalarda fikrlash, xotira, e'tibor, idrok, tasavvur, xulq-atvor va shaxsiyatning shakllanishiga ta'sir qiladi.

Eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarda uzoq muddatli xotirada eslab qolishga o'rgatish savol-javob orqali amalga oshiriladi. Savol-javob faqat o'tilayotgan mavzu bo'yicha emas, balki o'tilgan mavzular yuzasidan bo'lsa ham maqsadga muvofiq. Matn bilan ishlaganda bunday o'quvchilarni so'zlarni ma'nodosh so'zlar bilan almashtirish o'qilgan matn mazmunini o'z so'zlari bilan bayon qilishga o'rgatish kerak. Bu eshitishda nuqsoni bor bolalarning fikrlash xotirasini rivojlantirishga yordam beradi. O'yin turlaridan ko'proq sujetli-rolli o'yinlardan foydalanish mumkin. Sujetli-rolli o'yin jarayonida eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar o'zlariga berilgan roller asosida kata odamlar hayoti, ularning faoliyati va o'zaro munosabatini ifodalaydi. O'yin davomida atrof-olam haqidagi tasavvur aniqlanadi, chuqurlashadi, ularning bilimi kengayadi, qiziqishlari shakllanadi. O'yin jarayonida bolalar ijtimoiy xulq qoidalarini egallaydi. O'yinning xarakterli xususiyatlaridan biri hayotda qo'llaniladigan predmetlarni boshqa maqsadda qo'llashdir. Predmetlarni o'yin jarayonida qo'llashda sog'lom bolalar nomini osongina boshqa predmet nomiga almashtira oladilar. Eshitishda nuqsoni bor bolalarga esa bu biroz qiyinchilik tug'diradi. Chunki bunday bolalar predmetga qo'yilgan shartli nomga emas, predmetning xususiyatiga ko'proq e'tibor beradilar.

Yana shunday nuqsonlardan biri – bu nutqiy nuqson. Nutqida nuqsoni bor bolalar bilan ishlashda pedagog quyidagilarni e'ttiborga olishi lozim:

- bolalar bilan aniq va to'g'ri gaplashish;
- nutq materialiga e'tibor berish: she'rlarni yodlash, rasmlar asosida suhbatlar o'tkazish, bir qator rasmlardan hikoyalar tuzish, ertaklarni qayta aytib berish;
- bolalar bilan sahnalashtirilgan ertak, teatr o'yinlari, qo'g'irchoq teatrlarini o'tkazish uchun mavjud bo'lgan va turli xil materiallardan tayyorlangan jihozlardan foydalanish;
- fonetik o'yinlar va nafasni normallashtirishga qaratilgan o'yinlardan foydalanish;
- nutqida og'ir nuqsonlari bo'lgan bolalarga atrofdegilar do'stona munosabatda bo'lishlari ustidan nazorat qilish lozim. Chunki tanqid va masxara qilish uning nutqini yomonlashtirishi, bolaning rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Ma'lumki, o'yin bolalarning tabiiy holatidir. Nutqi to'liq rivojlanmagan bolalar turmush mavzusiga oid o'yinlarni ko'proq yaxshi ko'radilar, chunki ular uncha keng tasavvurni talab etmaydi va har kuni kuzatiladigan tanish sahnalardan iborat bo'ladi. Lekin o'yin faoliyati nutqi to'liq rivojlanmagan bolalarda nutqi me'yorda rivojlangan bolalarga nisbatan ancha sust bo'ladi va o'yin yangi detallar bilan kengaytirilmaydi.

Yuqorilardan ko‘rinadiki, imkoniyati cheklangan bolalar bilan ishlashda pedagoglardan alohida mahorat talab qilinadi. Imkoniyati cheklangan bolalarga ular ham jamiyatning ijtimoiy qatlami ekanligini, teng huquqli jamiyat a‘zosi ekanliklarini turli usul va vositalar orqali tushuntirish talab etiladi. Bunda esa bizga o‘yinlar eng yaxshi yordamchi vosita sanaladi. Dars jarayonida ma‘lumotlarni oson o‘zlashtirishlari, sinfdagi qolgan o‘quvchilardan ajralib qolmasliklarini oldini olish uchun har bir bolaning psixologiyasini, imkoniyatlarini, qiziqishini, iqtidorini inobatga olish zarur. O‘yinlarni tanlashda ham bu xususiyatlarga e‘tibor berish talab etiladi. Bolalar o‘yinlar orqali darsni o‘zlashtirsin va o‘zidagi iqtidorni kashf eta olsin. Shundagina imkoniyati cheklangan barcha bolalar jamiyat hayotida faol ishtirok etishga erishishlari mumkin. Inklyuziv ta‘lim bolalarning ma‘naviy va jismoniy o‘rishlarida samaralidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Vigotskiy L.S. Defekt i sverxkompensatsiya. // “Problema defektologi”. M., 1996. –B. 42.
2. Azimova I, Mavlonova K, Quronov S, Shokir Tursun. Ona tili va o‘qish savodxonligi. 1-sinf uchun darslik – Toshkent, 2001.
3. Mo‘minova.L.R va b.q. Maxsus psixologiya – O‘zbekiston faylasuflarimilliy jamiyati nashriyoti: Toshkent, 2018 -270 b

Internet ma‘lumotlari

4. [Inklyuziv talim: afzalliklari va kamchiliklari, xususiyatlari va tavsiyalari - Jamiyat - 2022 \(drunkentengu.com\)](http://drunkentengu.com)
5. [biologiya.edu.uz›kontent/yoshfiziologiyasi/2/2.pdf](http://biologiya.edu.uz/kontent/yoshfiziologiyasi/2/2.pdf)